

2. Бахтияровна, З. Суёнова, С. Кузibaевич Амиров. "Важность показателей микроклимата на молокозаводе". *Международный журнал инноваций в области инженерных исследований и технологий*, № 1, 2020, стр. 1-6.

3. Dilafruz, M., Hasan, M., Bobur, D., & Zulfiya, S. (2023). THE SIGNIFICANCE OF THE ORGANIZATION OF COWS MILKING IN INCREASING DAIRY PRODUCTIVITY.

4. Bakhtiyarova, S. Z., & Kuzibaevich, A. S. The Importance of Microclimate Indicators in the Dairy. *International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology*, (1), 1-6.

5. Raimova, F., Yakhaev, B., & Suyunova, Z. (2023). ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ В РАЦИОНЕ ДОЙНЫХ КОРОВ КОРМОВОЙ ТЫКВЫ СОРТА СУТОФЕНТОВ, УНИВЕРСАЛЬНОЙ ПРОБИОТИКОВОЙ ДОБАВКИ "ПРОБИОКОРМ" И ПРЕМИКСА "NOVAMILK". *Статьи ssuv. uz*, 3(3).

6. Yaxyayev, B. S. (2023). GOLSHTIN ZOTLI SIGIRLARGA OZUQAVIY QO 'SHIMCHALARDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI. *AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI*, 183-190.

7. Суёнова, З. Б., Намозов, М., Исломов, Ў., Рахматова, Д., & Эшмўминова, М. (2023). ГОЛШТИН ЗОТЛИ СИГИРЛАРИНИНГ СУТ МАҲСУЛДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА ЭТОЛОГИК КЎРСАТКИЧЛАРГА БОҒЛИҚЛИГИ. *AMALIY VA TIBBIYOT FANLARI ILMIY JURNALI*, 137-143.

6. Нендисса Д. Р., Алимгожаевич И. К., Сапаев И. Б., Каримбаевна Т. М., Бахтияровна С. З., Абдулла Д., ... и Шарифовна А. Г. (2023). Устойчивый выпас скота в Казахстане, практика, проблемы и экологические соображения. *Caspian Journal of Environmental Sciences*, 21(4), 977-988

UO'K: 636.085:637.11

Tajriba guruhlaridagi sigirlarning klinik ko'rsatkichlari

R.G.Pardayev, U.T.Raximov, A.B.Tuygunov
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada turli seleksiyaga mansub qora-ola zotli sigirlarning fasllar kesimida klinik ko'rsatkichlari (tana harorati, yurak urushi va nafas olishi) to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Fasl, klinik ko'rsatkich, qora ola, tana harorati, yurak urushi, nafas olishi.

Summary. This article presents clinical parameters (data on body temperature, heart rate and respiration) of black-and-white cows of different selections.

Key words: Season, clinical indicator, black spot, body temperature, heart rate, breathing.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 18-martdagi PQ-4243-son "Chorvachilik tarmog'ini yanada rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" gi, 2019-yil 28-martdagi PQ-4254-son "O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" gi, 2020-yil 29-yanvardagi PQ-4576-son "Chorvachilik tarmog'ini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" gi, 2022-yil 8-fevraldagi PQ-120-son "O'zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlartirish bo'yicha 2022-2026-yillarga mo'ljallangan dasturni tasdiqlash to'g'risida" gi qarorlari va mazkur faoliyatga tegishli me'yoriy huquqiy hujjatlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishi ma'lum darajada xizmat qiladi.

Respublikamizda 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan go'sht (tirik vaznda) 2725998 tonnani tashkil qilib, o'tgan yilga nisbatan 3,40 foizga ko'p bo'lgan. Jami ishlab chiqarilgan go'shtning 159228 tonnasi yoki 5,84 foizi fermer xo'jaliklarida, 2395920 tonnasi yoki 87,90 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida, 170850 tonnasi yoki 6,26 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan bo'lsa, 2022-yilda respublikamizda jami 11629434 tonna sut sog'ib olingan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 3,20 foizga oshgan. Jami sog'ib olingan sutning 632193 tonnasi, yoki 5,43 foizi fermer xo'jaliklarida, 10861417 tonnasi, yoki 93,39 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida hamda 135824 tonnasi, yoki 1,18 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda ishlab chiqarilgan.

Qora-ola zotiga mansub qoramollar respublikamizning barcha viloyatlarida urchitiladi. Mazkur zotga mansub qoramollar umumiy soniga nisbatan, asosiy qismi Toshkent, Farg'ona, Namangan, Sirdaryo, Samarqand viloyatlarida, Andijon, Buxoro, Surxondaryo va Xorazm viloyatlarida nisbatan kam urchitiladi. Bu zot golland zotini mahalliy mollar bilan chatishtirishdan kelib chiqqan [3].

Tadqiqotning maqsadi. Chetdan keltirilgan va mahalliy qora-ola zotiga mansub qoramollarning klinik ko'rsatkichlarini fasllar kesimida maxsus tadqiqotlar yordamida o'rganish.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot bo'yicha tajribalar qismi 2021-2023-yillar davomida Samarqand viloyati Tayloq tumanidagi "Siyob-Shavkat-Orzu" mas'uliyati cheklangan jamiyatning qoramolchilikka ixtisoslashgan fermasida olib borildi. Tajriba uchun Polsha davlatidan keltirilgan qora-ola zotiga mansub (I-guruh) va qora-ola zotining O'zbekiston xili (II-guruh) sigirlar tanlab olingan.

Tadqiqot natijalari. Biz tajriba guruhidagi sigirlarning klinik ko'rsatkichlarini o'rganish uchun har guruhdan 5 boshdan sigir tanlab oldik va yilning fasllari kesimida ularning klinik ko'rsatkichlarini o'rgandik hamda olingan natijalarni quyidagi 1-jadvalda havola qildik.

1-jadval

Tajriba guruhlaridagi sigirlarning klinik ko'rsatkichlari (n=5)

Ko'rsatkichlar	Guruhlar	
	I (X±Sx)	II (X±Sx)
Kuzda		
Tana harorati, °C	38,3±0,01	38,2±0,01
Yurak urushi, (1 daqiqada)	64,6±0,02	64,5±0,05
Nafas olishi, (1 daqiqada)	26,8±0,01	26,5±0,01
Qishda		
Tana harorati, °C	38,1±0,01	38,0±0,02
Yurak urushi, (1 daqiqada)	63,5±0,03	63,1±0,04
Nafas olishi, (1 daqiqada)	25,3±0,01	25,1±0,01
Bahorda		
Tana harorati, °C	38,3±0,01	38,1±0,01
Yurak urushi, (1 daqiqada)	64,8±0,03	64,2±0,03
Nafas olishi, (1 daqiqada)	26,2±0,02	26,0±0,01
Yozda		
Tana harorati, °C	38,6±0,02	38,6±0,01
Yurak urushi, (1 daqiqada)	66,8±0,04	66,7±0,05
Nafas olishi, (1 daqiqada)	27,7±0,02	27,5±0,01

Ma'lumki, klinik ko'rsatkichlarni asosiysi bu hayvonning tana haroratidir. Tana harorati to'g'ri ichak orqali aniqlanadi. Har bir bosh sigirning tana haroratini o'lchash uchun 5-10

daqiqa vaqt ketdi. Tana harorati odatda sigirlarda o'rtacha 37,5 – 39,5°C oralig'ida bo'lishi lozim.

Sigirlarning nafas olish tezligini aniqlash uchun sigirlarni bosh tomonidan ko'krak va qorin bo'shlig'ini ko'tarilib (nafas olganda) va pasayishiga (havo chiqarganda), ayrimlarini burun bo'shlig'idan havoni kirib chiqishiga qarab aniqladik. Nafas olish ayrim ilmiy manbalarda o'rtacha 12-25 marta deb ta'kidlangan. Lekin O'zbekistonning issiq iqlim sharoitida bu ko'rsatkich 15-20 foiz yuqori bo'ladi.

1 daqiqada sigirlarning yurak urish sonini dum arteriyasini va pastki jag' arteriyasini tashqaridan bosib ko'rish yo'li bilan aniqladik. Buning uchun dum asosini yoki pastki jag' arteriyasini barmoqlar bilan bosib turdik. Umuman yurak urishi 1 daqiqada 60-80 marta bo'lishi aniqlangan.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, I-guruhdagi Polsha seleksiyasiga mansub bo'lgan sigirlar tana harorati bo'yicha o'z tengqurlari II-guruhdagi sigirlardan kuzda 0,01 °C, yurak urushi bo'yicha 0,01 daqiqa, nafas olishi bo'yicha 0,3 daqiqa, qishda tana harorati bo'yicha 0,01 °C, yurak urushi bo'yicha 0,4 daqiqa, nafas olishi bo'yicha 0,2 daqiqa, bahorda tana harorati bo'yicha 0,02 °C, yurak urushi bo'yicha 0,06 daqiqa, nafas olishi bo'yicha 0,2 daqiqa, yozda tana harorati bo'yicha bir xil, yurak urushi bo'yicha 0,1 daqiqa, nafas olishi bo'yicha 0,2 daqiqa yuqori bo'lgan.

Shuni ta'kidlash lozimki, klinik ko'rsatkichlar fasllar kesimida tahlil qilinganda, hayvonlarning kelib chiqishidan qat'iy nazar barcha guruhlarda yoz oyida oshganligi kuzatilgan. Xususan, tana harorati qish fasliga nisbatan yoz faslida mutanosib ravishda guruhlarda: 0,03 va 0,05 °C, yurak urushi 3,3 va 3,6 daqiqa, nafas olishi 2,4 va 3,0 daqiqaga ko'p bo'lgan.

Ushbu ma'lumotlar, yoz faslidagi issiq havo harorati sigirlarning klinik statusiga ta'sir qilib, bu ko'rsatkichlarni oshishiga sabab bo'lganligini ko'rsatadi.

Bunday fikrlarni Rossiya Federatsiyasining turli hududlarida maxsus fiziologik tajribalar o'tkazgan O.A.Basonov va boshqalar (2010), A.B.Bakay va boshqalar (2013), A.I.Shendakovlar (2014) ham qayd qilishgan.

Hayvonlarni va ayniqsa import yo'li bilan olib kelingan qoramollarni, yangi sharoitga moslashish, ya'ni iqlimlanish xususiyati tez va maqsadga muvofiq kechishi uchun ularni olib kelish tadbirini kuz oylarining oxiri, yoki qish faslida tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Bahor oylarida tashqaridan olib kelingan hayvonlarni yaylovga chiqarmaslik chorasini ko'rish kerak, agar chiqishi lozim bo'lganda, dastavval yaylovni yaxshilab dezinfeksiyalab, eski imorat, qishloq, qo'ton bo'lgan joylarni sanitariya jihatdan tozalash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa. Shunday qilib, o'tkazilgan maxsus tadqiqotlar, sigirlarning kelib chiqishidan qat'iy nazar, barcha guruhlardagi sigirlarda yilning yoz faslida boshqa fasllarga nisbatan tana harorati, yurak urushi va nafas olish tezligi, biroz yuqori bo'lganligini ko'rsatadi. Bu esa yozda bo'ladigan issiq havo harorati ta'sirida hayvonlar organizmida yurak-qon tomir sistemasi jadal faoliyat ko'rsatganligidan va organizmda moddalar almashinuvi jarayoni jadal kechganligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60 sonli Farmoni. // Toshkent. 2022 yil. 28 yanvar.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Chorvachilik tarmog'ini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4576 sonli qarori. // Toshkent. 2020 yil 29 yanvar.

3. Nosirov U.N. Qoramolchilik. Toshkent 2001. 364 b.

4. Tursunmurodovich R. U. et al. RESPUBLIKAMIZDA CHORVACHILIK VA PARRANDACHILIKDAN OLINGAN MAHSULOTLAR //AMALIY VA TIBBIYOT FANLARI ILMIY JURNALI. – 2023. – C. 1-6.

5. Пардаев Р. Г. и др. ТАЖРИБАДАГИ БУҚАЧАЛАРНИ ОЗИҚЛАНТИРИШ //AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI. – 2022. – C. 830-833.

UO‘K: 338.636

SIMMENTAL ZOTLI SIGIRLARNING SUT MAHSULDORLIGINING ISHLAB CHIQUARISH TIPLARIGA BOG‘LIQLIGINI O‘RGANISH

M.Jumanazarova, A.Axrorov, Z.Ochildiyev,

U.Abdug‘afforov, E.Abduraupov-talabalar

F.R.Sattorov-q.x.f.f.d. (PhD)

*Samarqand veterinariya meditsinasi chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti*

Annotation. In this research work has been defined the milk productivity of Simmental breed dependence of cows brought from abroad. The lactation of diary type cows in comparasion to diary –meat cows type productivity was 672,5 kg ,butter yield amount 20,2 kg. Respectively the ontcome of production compared to diary-meat type cows were higher as 958,7 and 29,4kg. It is also had been pointed out to wcrease the number of diary type cows in livestock.

Kalit so‘zlar: simmental, zot, sigir, mahsuldorlik, tana tuzilishi, tip.

Kirish. Keyingi yillarda respublikamizning naslchilik bazasini mustahkamlash va yuqori mahsuldor podalar yaratish maqsadida Yevropaning qoramolchiligi rivojlangan ko‘plab mamlakatlaridan naslli qoramollar keltirilmoqda. Bu qoramollar mahsuldorlik xususiyatlari bo‘yicha yuqori irsiy salohiyatga ega.

Chetdan keltirilgan qoramollar odatda sermahsul bo‘lib, ular to‘la qiymatli oziqlantirish hamda asrash sharoitlariga talabchan bo‘ladi. Shunday qoramol zotlaridan biri simmental zotidir. Bu zot qo‘sh mahsuldor bo‘lib, dunyoning ko‘plab mamlakatlarida keng tarqalgan. Sigirlari sermahsul bo‘lib sutining yaxshi sifat ko‘rsatkichlari bilan ajralib turadi. Ulardan foydalanib yuqori mahsuldor sutbop podalar yaratishda tana tuzilishi xillarini hisobga olib podalarni shakllantirish sut ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda muhim omil bo‘lib hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi. Chetdan keltirilgan simmental zotli sigirlarning sut mahsuldorlik xususiyatlarini ishlab chiqarish tiplariga bog‘liqlikda o‘rganish hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotlar simmental zotli turli ishlab chiqarish tipiga ega sigirlarda olib borildi. Sigirlarning sut mahsuldorlik ko‘rsatkichlari zootexniyada umumiy qabul qilingan usullarda o‘rganildi.

Tadqiqotlar natijalari. Tadqiqotlar Samarqand viloyatining Pastdarg‘om tumanidagi “K.Eldor” naslchilik xo‘jaligining qoramolchilik podasida o‘xshashlik belgilari talablari asosida sigirlarning kelib chiqishini, tana tuzilishi xilini, tirik vaznini, fiziologik holatini hisobga olgan holda III laktatsiyadagi sigirlarda o‘tkazildi.

1-jadval

Turli tipdagi sigirlarning sut mahsuldorlik ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	Guruhlar					
	I		II		III	
	$\bar{X} \pm S_{\bar{x}}$	Cv, %	$\bar{X} \pm S_{\bar{x}}$	Cv, %	$\bar{X} \pm S_{\bar{x}}$	Cv, %